ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

UDK: 321.01. **DOI:** https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2199

O‘ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGI SIYOSATINING HUQUQIY ASOSLARINI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

O.O.Aliyev
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot xavfsizligi kategoriyalarini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ifodalangan shakllarini yoritish, axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslari, axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini qonun va qarorlar tahlili misolida ko‘rsatib berish maqsad qilingan. Maqolada davlat axborot xavfsizligi siyosatiga oid kategoriyalarni ilmiy tahlil etish, ularni bir-birlari bilan qiyosiy o‘rganishda nazariy mushohada, matematik va statistik metodlar, grafik tasvirlash, mantiqiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

O‘zbekistonda AKTni rivojlanib borishi, uni davlat boshqaruvi va xizmat ko‘rsatishi sohalariga joriy etish kuchayib borishiga monand ravishda ahborot xavfsizligini ta’minlash muammolari o‘sib bordi. Kiber hujumlarni avj olishi, xakerlikning ko‘payib borishi natijasida axborot xavfsizligi huquqiy va siyosiy asoslarini takomillashtirish va zamonaviylashtirishga bo‘lgan zarurat paydo bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: davlat boshqaruvi, axborot xavfsizligi, kiberhujum, kiberjinoyat, kiber tahdidlar, hakerlik, huquqiy asos, qonun, me’yoriy hujjatlar, xizmat ko‘rsatish sohalari.

Формирование и развитие правовой основы политики информационной безопасности в Узбекистане

Аннотация. Данная статья направлена на уточнение форм категорий информационной безопасности, выраженных в законодательстве Республики Узбекистан, правовых основ политики информационной безопасности, основных направлений государственной политики в сфере информатизации, на примере анализа законов и решений. В статье при их сравнительном изучении использовались научный анализ категорий, связанных с государственной политикой информационной безопасности, теоретическое наблюдение, математические и статистические методы, графическое представление, методы логического и сравнительного анализа. Проблемы обеспечения информационной безопасности нарастали по мере развития ИКТ в Узбекистане, их внедрения в сферы государственного управления и оказания услуг. В результате роста кибер атак и приумножения числа хакерства возникла необходимость в совершенствовании и модернизации правовых и политических основ информационной безопасности.

Ключевые слова: государственное управление, информационная безопасность, кибератака, киберпреступность, кибер угрозы, хакерство, нормативно-правовая база, право, нормативные акты, сфера услуг.

Formation and development of legal basis of information security policy in Uzbekistan

Abstract. This article aims to clarify the forms of information security categories expressed in the legislation of the Republic of Uzbekistan, to show the legal basis of information security policy, the main directions of state policy in the field of information using the example of the analysis of laws and decisions. In the article, scientific analysis of the categories related to the state information security policy, theoretical observation, mathematical and statistical methods, graphic representation, logical and comparative analysis methods were used in their comparative study. The problems of ensuring information security have grown in line with the development of ICT in Uzbekistan, its introduction into the spheres of public administration and service provision. As a result of the increase in cyber attacks and hacking, the need to improve and modernize the legal and political foundations of information security has arisen.

Key words: public administration, information security, cyber attack, cyber crime, cyber threats, hacking, legal framework, law, regulatory documents, service areas.

O‘zbekistonda AKTni rivojlanib borishi, uni davlat boshqaruvi va xizmat ko‘rsatishi sohalariga joriy etish kuchayib borishiga monand ravishda ahborot xavfsizligini ta’minlash muammolari o‘sib

bordi. Kiberhujumlarni avj olishi, xakerlikning ko‘payib borishi natijasida axborot xavfsizligi huquqiy va siyosiy asoslarini takomillashtirish va zamonaviylashtirishga bo‘lgan zarurat paydo bo‘ldi.

Hozirgi davrga kelib davlat axborot xavfsizligi siyosatini amalga oshirish vositasida hal qilinadigan ziddiyatlar paydo bo‘ldi:

1. Davlatga nisbatan axborot jamiyatining rivojlanib borishi bilan fuqarolarning axborotlar bilan ta’minlanishi, ayniqsa ularning erkin ravishda axborotlar olishiga oid talablar kuchaydi. Xususan, Internet tarmoqlarida xujjatlar yuborish, turli to‘lovlarni amalga oshirish, davlat va o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan fuqarolarga axborotlar yetkazish, davlat va mahalliy hokimiyat organlarining aholiga xizmat ko‘rsatishi miqyoslari yildan-yilga kengayib bormoqda.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida axborotlarning behisob oqimlari juda ham ko‘plab texnikaviy qurilmalar, ayniqsa, mobil aloqalar vositasida uzatilmoqda.Boshqa tomondan qaraganda, davlat hokimiyati organlari o‘z fuqarolarini axborotlar olish ochiqligini ta’minlash choralarini ko‘rishdan tashqari fuqarolarning yana boshqa qonuniy huquqlari va manfaatlarini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratib berishi lozim. Axborotlar o‘zaro aloqalari davlat tomonidan muvofiqlashtirilmasa fuqarolar hayotining barcha jihatlarida paydo bo‘lgan muammolar shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoyalash, shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligi kabi sohalarni ham izdan chiqarishi, bu bilan milliy xavfsizlikka ziyon yetishi mumkin.

2. Globallashuv jarayonlari yangi axborot texnologiyalarini joriy etish jarayonlarini tezlashtirmoqda, xalqaro axborotlar almashinuvi o‘ta murakkablashib bormoqda. Globallashuv jarayonida davlat tomonidan axborotlar oqimlarini nazorat qilishini qiyinlashtirib, bu bilan davlat suvereniteti va mamlakat hududiy birligiga tahdid solmoqda. Biz ushbu maqolamizda axborot xavfsizligi kategoriyalarini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ifodalangan shakllarini yoritish, axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslari, axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini qonun va qarorlar tahlili misolida ko‘rsatib berish maqsad qildik.

Hozirgi kunda butun dunyoda globallauv jarayonlari avj olib bormoqda, jahon miqyosidv turli sub’ektlar va ularning suverenlashtirish jarayonlari kuchaymoqda [1]. Axborotlarni yig‘ish, ulardan foydalanish va tarqatishda davlat tomonidan cheklash va ta’qiqlash vositasidagi muvofiqlashtirishlarni yetarli emasligi milliy manfaatlari va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini to‘liq ta’minlanmasligiga, kiberjinoyatlarni ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Bu haqda taniqli olim N.N.Kunyaev quyidagilarni yozgan edi: “global axborot maydonini rivojlanishi davlat va uning fuqarolarini boshqa davlatlar yoki terrorchi tashkilotlar tajovuzlari axborot sohasida yangidan-yangi huquqiy va tashkiliy muvofiqlashtirilishlarga majburlaydi”[2].

O‘zbekiston hukumati va parlamenti kuchayib borayotgan kiber tahdidlar, ularga qarshi axborot xavfsizligini ta’minlash maqsadlarida xalqaro standartlar va milliy manfaatlardan kelib chiqib qator qonunlar va boshqa turli me’yoriy hujjatlar qabul qildi. Ular asosan quyidagilardan iborat bo‘ldi.

1999- yilning 20- avgustida O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida” Qonuni qabul qilindi. Qonunning 326-moddasida “Telekommunikatsiya vositalariga shikast yetkazilishiga, ularga ruxsatsiz ulanishga yo‘l qo‘ygan yuridik va jismoniy shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi” yuridik jihatdan mustahkamlab qo‘yildi [3].

O‘zbekiston Respublikasining 2002- yil 12- dekabrda qabul qilingan “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasi mamlakatda axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, unda quyidagi huquqiy asoslar ifodalandi: axborot sohasidagi xavfsizlikka tahdidlarga qarshi harakatlar yuzasidan iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa tusdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish; davlat sirlarini saqlash va davlat axborot resurslarini ulardan ruxsatsiz tarzda foydalanilishidan muhofaza qilish; O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga, hududiy yaxlitligini, suverenitetini buzishga, hokimiyatni bosib olishga yoki qonuniy ravishda saylab qo‘yilgan yoxud tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga va davlat tuzumiga qarshi boshqacha tajovuz qilishga ochiqdan ochiq da’vat etishni o‘z ichiga olgan axborot tarqatilishidan himoya qilish; urushni va zo‘ravonlikni, shafqatsizlikni targ‘ib qilishni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovat uyg‘otishga qaratilgan terrorizm va diniy ekstremizm g‘oyalarini yoyishni o‘z ichiga olgan axborot tarqatilishiga qarshi harakatlar qilish [4].

O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunning “Axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilish” nomli 19-moddasida axborot resurslari va tizimlarini muhofaza qilishning asosiy prinsip va maqsadlari quyidagicha belgilandi:

-shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash;

-axborot resurslarining tarqalib ketishi, o‘g‘irlanishi, yo‘qotilishi, buzib talqin etilishi, to‘sib qo‘yilishi, qalbakilashtirilishi va ulardan boshqacha tarzda ruxsatsiz erkin foydalanilishining oldini olish;

-axborotni yo‘q qilish, to‘sib qo‘yish, undan nusxa olish, uni buzib talqin etishga doir ruxsatsiz harakatlarning hamda axborot resurslari va axborot tizimlariga boshqa shakldagi aralashishlarning oldini olish;

axborot resurslaridagi mavjud davlat sirlari va maxfiy axborotni saqlash [5].

Ularni ichida dastlabki qabul qilingan qonunlardan biri – bu O‘zbekiston Respublikasining 2003- yil 11-dekabrda qabul qilingan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni hisoblanadi. Uning 4-bobida davlatning axborotlashtirish siyosati quyidagicha ifodalandi: “har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanilishini ta’minlash;

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: “xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog‘idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish”. Shu bilan birga, Qonunning 19-moddasida mamlakat axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilishga oid quyidagi qoidalar ifodalandi: “shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash; axborot resurslarining tarqalib ketishi, o‘g‘irlanishi, yo‘qotilishi, buzib talqin etilishi, to‘sib qo‘yilishi, qalbakilashtirilishi va ulardan boshqacha tarzda ruxsatsiz erkin foydalanilishining oldini olish; axborotni yo‘q qilish, to‘sib qo‘yish, undan nusxa olish, uni buzib talqin etishga doir ruxsatsiz harakatlarning hamda axborot resurslari va axborot tizimlariga boshqa shakldagi aralashishlarning oldini olish; axborot resurslaridagi mavjud davlat sirlari va maxfiy axborotni saqlash” [6].

Axborot xavfsizligi masalalarini muvofiqlashtirish aks etgan yana bir me’yoriy hujjat – bu 2004- yil 29-aprelda qabul qilingan “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonun bo‘ldi. Mazkur Qonunning 17-moddasida elektron hujjat aylanishida elektron hujjatlarni muhofaza qilish maqsadida quyidagi qoida kiritildi: “Elektron hujjat aylanishida elektron hujjatlarni muhofaza qilish elektron hujjat aylanishining ishtirokchilariga yoki boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi” [7].

2006-yilning 4-aprelida O‘zbekiston Respublikasining “Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Uning 5-moddasida axborot xavfsizligini ta’minlashga oid quyidagi qoidalar belgilandi: “Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotning muhofaza qilinishini tashkil etish: axborotni muhofaza qilish qoidalarini ishlab chiqish hamda ularga rioya etish, shuningdek, avtomatlashtirilgan bank tizimida ishlov beriladigan axborotni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish; avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish” [8].

Mamlakatda axborot xavfsizligini ta’minlash sohasida 2014-yil 5-mayda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni muhim ahamiyat kasb etdi. Qonunning 6-moddasida quyidagilar belgilab qo‘yildi: “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborotdan foydalanish, agar mazkur axborot qonunda belgilangan tartibda davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlar jumlasiga kiritilgan bo‘lsa, cheklab qo‘yiladi [9].

2019-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respsublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning 28-moddasida shaxsga oid ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asosi belgilab qo‘yildi: “Sub’ektning roziligisiz yoki boshqa qonuniy asos mavjud bo‘lmagani holda shaxsga doir ma’lumotlarni oshkor etish va tarqatishga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risida mulkdor va (yoki) operator yoki shaxsga doir ma’lumotlardan foydalanishga ruxsat olgan boshqa shaxs tomonidan rioya etilishi majburiy bo‘lgan talab shaxsga doir ma’lumotlarning maxfiyligidir. Mulkdor va (yoki) operator hamda shaxsga doir ma’lumotlardan foydalanishga ruxsat olgan boshqa shaxslar sub’ektning roziligisiz shaxsga doir ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi va tarqatmasligi shart” [10].

O‘zbekistonda axborot xavfsizligini ta’minlashga oid tub o‘zgaishlar va rivojlanishlar Prezident Sh.M.Mirziyoev davlat rahbari etib saylanganidan keyin boshlandi. O‘zbekistonni g‘arb va sharq mamlakatlari hamda xalqaro tashkilotlarga nisbatan ochilishi, ular bilan har tomonlama hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yilishi natijasida mamlakat AKT va “elektron hukumat”ni rivojlantirish avj oldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish” deb nomlangan beshinchi yo‘nalish doirasida mamlakatning konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish, kiberxavfsizlik sohasining normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish belgilangan. Xususan, 2020-2023- yillarga mo‘ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiyani, “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida” gi Qonun loyihasini hamda O‘zbekiston Respublikasi yagona axborot siyosati konsepsiyasi ishlab chiqish belgilandi [11].

2017 yil 29 avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorini bajarish yuzasidan hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda axborot va jamoat xavfsizligi, shuningdek, huquq-tartibotni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish, “Xavfsiz shahar” yagona apparat-dasturiy kompleksini yaratish loyihasining o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida 2017- yil 17- oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlashga ko‘maklashish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan markazning axborot xavfsizligi bo‘yicha faoliyat yo‘nalishlari sifatida quyidagilan belgilandi:

-axborot xavfsizligiga hozirgi vaqtdagi tahdidlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va to‘plash, davlat organlari axborot tizimlari, resurslari va ma’lumotlar bazalariga noqonuniy kirib olish holatlarining oldini olishni ta’minlaydigan samarali tashkiliy va dasturiy-texnik yechimlarni operativ qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish;

-axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sohasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari bo‘yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

-qonun buzuvchilarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda, axborotlar makonidagi ruxsatsiz yoxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar va vositalarni tahlil qilishda telekommunikatsiyalar tarmoqlarining operatorlari va provayderlari, huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish;

Internetning milliy foydalanuvchilarini Internet tarmog‘i milliy segmentida axborot xavfsizligiga paydo bo‘layotgan tahdidlar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilish, shuningdek, axborotlarni muhofaza qilish bo‘yicha maslahat xizmatlari ko‘rsatish [12].

Shu bilan birga, mazkur markaz “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, joylardagi davlat hokimiyati organlari axborot xavfsizligini ta’minlash talablari” hujjatini qabul qildi. Bu hujjat ko‘plab standartlar talablarini bir hujjatga joyladi. Jumladan, ISO 27000 seriyalari ichidan eng muhimlarini ajratib olib, uni barchaga tushunarli tarzda bo‘lishiga muhim ahamiyat berdi. Boshqacha aytganda, davlat organlaridagi axborot xavfsizligi ma’murlari uchun yagona hujjat shakllandi.

№	**Prezident, Vazirlar Mahkamasi va boshqa davlat organlari tomonidan qabul qilingan axborot xavfsizligiga oid me’yoriy hujjatlar**	**Me’yoriy hujjatlarning asosiy maqsadi**
1.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi	-iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalarida axborotni muhofaza qilishning zamonaviy vositalari va uslublarini yanada rivojlantirish va keng joriy qilishni ta’minlash, shuningdek, Internet milliy foydalanuvchilarini hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini axborot xavfsizligiga tahdidlar

	huzuridagi “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish markazi hamda Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2013- yil 16-sentabr, 250-sonli Qarori).	to‘g‘risida ogohlantirish Markaz faoliyatining asosiy maqsadlari hisoblanadi; -axborot tizimlari komplekslari, “Elektron hukumat” tizimining resurslari va ma’lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini ta’minlash; -Internet tarmog‘ining milliy segmentida yuzaga keladigan axborot xavfsizligiga tahdidlar to‘g‘risida Internet milliy foydalanuvchilarini o‘z vaqtida xabardor qilish, shuningdek, axborotni muhofaza qilish bo‘yicha maslahat xizmatlarini ko‘rsatish; -axborot makonida ruxsatsiz yoki destruktiv harakatlarni o‘tkazishda buzg‘unchilarni, foydalaniladigan uslub va vositalarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish; Internet tarmog‘ining milliy segmentida axborot xavfsizligi mojarolarining oldini olishda amaliy o‘zaro hamkorlikni tashkil qilish maqsadida axborot xavfsizligi sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish [13].
2.	“2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” (2017- yil 7-fevral).	Harakatlar strategiyasining 5- yo‘nalishida quyidagi quyidagi vazifa belgilandi: “axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish” [14].
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (2018- yil 21- noyabr).	Axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlashga ko‘maklashish markazi tugatilib, uning o‘rnida quyidagilar tashkil etildi: 1) O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi; 2)davlat unitar korxonasi shaklida Texnik ko‘maklashish markazi; 3)O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining “Xavfsiz shahar” jamoat tartibiga ko‘maklashish markazi. Markazning asosiy vazifalari etib sifatida quyidagilar belgilandi: axborot xavfsizligiga hozirgi vaqtdagi tahdidlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va to‘plash, davlat organlari va tashkilotlari axborot tizimlari, resurslari va ma’lumotlar bazalariga noqonuniy kirib olish holatlarining oldini olishni ta’minlaydigan samarali tashkiliy va dasturiy-texnik yechimlarni tezkor qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish; qonun buzuvchilarni, axborotlar makonidagi ruxsatsiz yoxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar va vositalarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda telekommunikatsiyalar tarmoqlarining operatorlari va provayderlari, huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish; davlat organlari va tashkilotlari axborot tizimlari va resurslari axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ko‘maklashish; davlat axborot tizimlari va resurslari, shuningdek, internet tarmog‘i milliy segmentining axborot xavfsizligini

		ta’minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish [15].
4.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori (2019- yil 14- sentabr).	“Texnik ko‘maklashish markazi” davlat unitar korxonasini O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatiga berish va uni “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasi etib qayta nomlash, Davlat xavfsizlik xizmati kiberxavfsizlikni tartibga solish sohasida vakolatli organ hisoblanishi, O‘zkomnazorat “Kiberxavfsizlik markazi” DUK bilan birgalikda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va idoralarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish hamda axborot xavfsizligi holatini nazorat qilish, monitoring qilish, o‘rganish va tekshirishni amalga oshirishi belgilab qo‘yildi [16].
5.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Internet jahon axborot tarmog‘ida milliy kontentni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga binoan 2019-2021 yillarda Internet jahon axborot tarmog‘ida milliy kontentni yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks dasturi tasdiqlandi (2019- yil 21- oktabr).	Davlat dasturida 2020-2023- yillarga mo‘ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya belgilab berildi. Bu hujjatda “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish, ikki oy muddatda Yagona reestr va ro‘yxatlarni shakllantirish hamda yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizom loyihasisi ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi[17].
6.	O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonuni (2022- yil 17-mart).	Qonunda kiberjinoyatchilikni oldini olish, unga qarshi kurashishning prinsiplari, yo‘nalishlari, usullari, mas’ul davlat organi va uning vakolatlari, kiberxavfsizlik hodisalari bo‘yicha choralar ko‘rish hamda xalqaro hamkorlik masalalari nazarda tutilgan. Jumladan, qonunning maqsadi mamlakatda kiberxavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘lib, uning asosiy vazifalari kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish hisoblanadi. Qonunda kiberjinoyatchilik, kibertahdid, kiberxavfsizlik, kiberhimoya va kiberhujum kabi tushunchalar qo‘llanib, kiberxavfsizlikni ta’minlashning asosiy prinsiplari va bu sohadagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilandi. Shuningdek, qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilanib, uning huquqlari va majburiyatlari mustahkamlab qo‘yildi. Qonunning qabul qilinishi, birinchidan, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi; tizimlari va resurslarining yaxlitligini ta’minlashga ruxsatsiz harakatlar, axborotni yo‘q qilish, o‘zgartirish, buzish, nusxalash, bloklash va mamlakatning axborot tizimlari va tarmoqlariga noqonuniy aralashishning boshqa shakllarining oldini olishga xizmat qiladi [18].

2022- yilning 17- martida O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni Oliy Majlis Senati tomonidan ma’qullandi.Mazkur Qonunga binoan O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilandi.

Qonun 8 ta bob va 40 ta moddani o‘z ichiga olgan bo‘lib, unda mazkur qonunning maqsadi, vazifalari, bu sohaga oid asosiy tushunchalar, kiberjinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurashish prinsiplari, yo‘nalishlari, usullari, bu soha uchun mas’ul davlat organi va uning vakolatlari, kiberxavfsizlik hodisalari bo‘yicha choralar ko‘rish hamda xalqaro hamkorlik masalalari kabi jihatlarni muvofiqlashtirish belgilandi. Qonunning yana bir muhim jihati uning asosiy vazifasi kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish deb belgilanishidir.

Mazkur Qonun kiberxavfsizlik sub’ektlarining huquq va majburiyatlari, ularning kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan majburiy tartibda yoki kiberxavfsizlik sub’ektlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshirilishi kabi tartibot o‘rnatildi. Mazkur Qonunning qabul qilinishi, dastavval, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash bilan bir qatorda kiberxavfsizlikni davlat tomonidan tartibga solish, huquqiy, tashkiliy, ilmiy-texnik va me’yoriy-uslubiy ta’minot tizimini takomillashtirishga, axborot tizimlari va resurslarining yaxlitligini ta’minlash jarayonini huquqiy jihatlardan muvofiqlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrda qabul qilgan PF-6079-sonli “Raqamli o‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida “aholi punktlarini Internet tarmog‘iga ulash darajasi, shu jumladan, keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 foizdan 95 foizga yetkazish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy qilish” vazifalari qo‘yildi [19]. Ko‘rinib turibdiki, AKT, “Elektron hukumat, Internet tarmoqlarini tezkorligi oshib borgan sari axborot xavfsizligi tahdidlarini kuchayib va kengayib borishi kutiladi. Shuning uchun ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategisida “xalqaro elektron tijorat standartlari va zamonaviy axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish uchun elektron tijoratni rivojlantirishning huquqiy asoslarini, shuningdek, mavjud standartlar va elektron tijorat qoidalarini takomillashtirish va yangilash” vazifalari qo‘yildi [19].

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi mazkur strategiyani kibermaydonda amalda qo‘llash sohasidagi dastlabki qadamlardan biridir. Davlatimizning axborot siyosatiga asosan mamlakat qisqa davr ichida axborot xavfsizligi sohasida jahondagi rivojlangan davlatlar qatoriga kirishiga harakat qilinmoqda. Albatta, bu sohadagi rivojlanish Yangi O‘zbekiston poydevorini shakllantirish omillaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Пастухова Н.Б. Государственный суверенитет в эпоху глобализации // Журнал российского права, 2006. – № 5. – [Электронный ресурс] – СПС Гарант. (Pastukhova N.B. State sovereignty in the era of globalization // Journal of Russian Law, 2006. - No. 5. - [Electronic resource] - SPS Garant.).
2. Куняев Н.Н. Информационная безопасность как объект правового регулирования в Российской Федерации // Юридический мир, 2008. – № 2. – [Электронный ресурс] – СПС Консультант Плюс. (Kunyaev N.N. Information security as an object of legal regulation in the Russian Federation // Legal World, 2008. - No. 2. - [Electronic resource] - SPS Consultant Plus.).
3. O‘zbekiston Respublikasining “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida” qonuni. 1999 yil 20 avgust.//Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y.,03/21/ 721/0952-son.(Law of the Republic of Uzbekistan "On Telecommunications". August 20, 1999.//National database of legislative information, 04/21/2021, No. 03/21/683/0375, 10/12/2021, No. 03/21/ 721/0952.).

4. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi 439-II-sonli “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni// O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-y., 1-son, 2-modda; 2015 y., 52-son, 645-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.(Law of the Republic of Uzbekistan No. 439-II of December 12, 2002 "On Principles and Guarantees of Freedom of Information"// Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 2003, No. 1, Article 2; 2015, No. 52, Article 645; National database of legal documents, 04/19/2018, No. 03/18/476/1087.).
5. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, № 1-2, 10-modda.(The Law of the Republic of Uzbekistan "On Information" adopted on December 11, 2003 // Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 2004, No. 1-2, Article 10.).
6. O‘zbekiston Respublikasining ““Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni. 2003-yil 11-dekabr // *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Information". December 11, 2003//National database of legislative information, 04/21/2021, No. 03/21/683/0375.).
7. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi qonuni. 2004-yil 29-aprel // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2004-yil, 20-son, 230-modda.(Law of the Republic of Uzbekistan "On Electronic Document Circulation". April 29, 2004 // Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan", 2004, No. 20, Article 230.).
8. O‘zbekiston Respublikasining “Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni. 2006-yil 4-aprel.// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006 y., 14-son, 112-modda.(Law of the Republic of Uzbekistan "On information protection in the automated banking system". April 4, 2006.// Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan, 2006, No. 14, Article 112.).
9. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 5 mayda qabul qilingan 369-sonli “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonuni//https://lex.uz/docs/2381133.(Law of the Republic of Uzbekistan No. 369 “On Openness of Activities of State Power and Management Bodies” adopted on May 5, 2014//https://lex.uz/docs/2381133.).
10. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonuni. 2019-yil 2-iyul//*Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Personal Information". July 2, 2019//National database of legislative information, 04/21/2021, No. 03/21/683/0375.).
11. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son; 17.03.2021 y., 06/21/6188/0216-son, 01.05.2021 y., 06/21/6217/0409-son.(Action strategy for the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021//National database of legal documents, 31.07.2018, No. 06/18/5483/1594; 11.12.2019, No. 06/19/5892/4134; 03/17/2021, No. 06/21/6188/0216, 05/01/2021, No. 06/21/6217/0409.).
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlashga ko‘maklashish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori. 2017-yil 17-oktabr//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.10.2017-y., 09/17/838/0130-son, 01.05.2018 y., 09/18/318/1108-son; 27.03.2019 y., 09/19/254/2839-son. (Decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On measures to organize the activities of the Center for Information Security and Public Order Assistance of the Ministry of Information Technologies and Communications Development of the Republic of Uzbekistan."

October 17, 2017//National database of legal documents, 18.10.2017, No. 09/17/838/0130, 01.05.2018, No. 09/18/318/1108; 27.03.2019, No. 09/19/254/2839.).

13. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi «Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi» davlat muassasasi Ustavi// http://mitc.uz/media/d1259eea-9c30-fd36-c40b-43dd561979f3.pdf.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2017-yil 7-fevral. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son/(Charter of the state institution “Center for Information Security” under the Ministry of Information Technologies and Communications Development of the Republic of Uzbekistan // http://mitc.uz/media/d1259eea-9c30-fd36-c40b-43dd561979f3.pdf.).
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrda qabul qilingan “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori //https://www.pv.uz/uz/documents/o-merah-tehnologij-i-kommunikatsij-organizatsiiihzascity. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On the strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan”. February 7, 2017.// Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan, 2017, No. 6, Article 70, No. 20, Article 354, No. 23, Article 448, No. 37, 982 - substance; National database of legal documents, 31.07.2018, No. 06/18/5483/1594; 11.12.2019, No. 06/19/5892/4134/).
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 sentabrda qabul qilgan 4452-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori// hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.09.2019 y., 07/19/4452/4207-son. (Decision of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to control the introduction of information technologies and communications and improve their protection system" adopted on November 21, 2018 //https://www.pv.uz /uz/documents/o-merah-tehnologij-i-kommunikatsij-organizatsiiihzascity.).
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 oktabrda qabul qilgan “Internet jahon axborot tarmog‘ida milliy kontentni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori// https://lex.uz/docs/4566279.(Decision No. 4452 of the President of the Republic of Uzbekistan on September 14, 2019 "On additional measures to control the introduction of information technologies and communications and improve the system of their protection"// documents National database of information, 16.09.2019, No. 07/19/4452/4207.).
18. “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun loyihasi qabul qilindi. 25.02.2022y.//https://darakchi.uz/uz/139659.(The draft law "On cyber security" was adopted. 25.02.2022y.//https://darakchi.uz/uz/139659.).
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2020 yil 5 oktabr// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020 y., 06/20/6079/1349-son; 02.04.2021 y., 06/21/6198/0269-son. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6079 "On approval of the Digital Uzbekistan - 2030" strategy and measures for its effective implementation. October 5, 2020 // National database of legal documents, 06.10.2020, No. 06/20/6079/1349; 02.04.2021, No. 06/21/6198/0269.).